



## 2021- yilning yanvar-mart oylari uchun Sirdaryo viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-mart oylarida jami 562,1 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 123,7 % ni tashkil qildi.



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 105,8 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 813,0 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 410,7 mlrd. so‘nni yoki jami qurilish ishlaringin 73,1 % ni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 101,2 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 45,6 mlrd. so‘nni tashkil etib o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 128,7 % ni tashkil qildi.


**Ma‘lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta‘mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.





## Iqtisodiy faoliyati turlari bo'yicha qurilish ishlari

(ishlar hajmi, mlrd. so'm)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihibalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 57,0 % ni tashkil etadi.



Fuqarolik obyektlarini qurilishi bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 36,0 % ni tashkil etadi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 7,0 % to'g'ri keldi.





## Qurilsh ishlaringin faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

(jamiga nisbatan, % da)

2020- yil yanvar-mart

9,4



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

25,2




Fuqarolik obyektlarini qurilishi

65,4



Bino va inshootlarni qurilishi

7,0



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

36,0



Fuqarolik obyektlarini qurilishi

57,0



Bino va inshootlarni qurilishi

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringin asosiy qismi qurilish, turar joy hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalgaga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.



## Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari tarkibi


(mlrd. so ‘m)

	Jami qurilish ishlar	shu jumladan, qurilish ishlari tarkibi bo‘yicha		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik korxona va mikrofirmalar	norasmiy sektor
Sirdaryo viloyati :	<b>562,1</b>	<b>105,8</b>	<b>410,7</b>	<b>45,6</b>
Guliston sh.	<b>163,5</b>	<b>1,1</b>	<b>154,2</b>	<b>8,2</b>
Shirin sh.	<b>31,5</b>	<b>9,9</b>	<b>20,8</b>	<b>0,8</b>
Yangiyer sh.	<b>39,2</b>	<b>0,3</b>	<b>36,7</b>	<b>2,2</b>
<i>tumanlar :</i>				
Boyovut	<b>36,5</b>	<b>0,4</b>	<b>32,6</b>	<b>3,5</b>
Guliston	<b>22,5</b>	<b>0,3</b>	<b>18,6</b>	<b>3,6</b>
Mirzaobod	<b>43,9</b>	<b>6,1</b>	<b>34,4</b>	<b>3,4</b>
Oqoltin	<b>33,7</b>	<b>0,1</b>	<b>31,6</b>	<b>2,0</b>
Sardoba	<b>13,3</b>	<b>0,1</b>	<b>10,8</b>	<b>2,4</b>
Sayxunobod	<b>16,3</b>	<b>0,3</b>	<b>14,3</b>	<b>1,7</b>
Sirdaryo	<b>44,5</b>	<b>0,6</b>	<b>27,1</b>	<b>16,8</b>
Xovos	<b>117,2</b>	<b>86,6</b>	<b>29,6</b>	<b>1,0</b>



## Hududlar kesimida qurilish ishlari o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)




Viloyatda bajarilgan qurilish ishlaringin katta qismi Guliston shahriga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlaringin o'sish sur'ati 105,2 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Mirzaobod tumanida 118,8 % ni tashkil qildi.

Qurilish ishlaringin hududlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Xovos tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 342,5 % ni tashkil qildi.



## Qurilish ishlari bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, % da)



Joriy davrda jami qurilish ishlaring katta qismi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 410,7 mld. so'm yoki jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 73,1 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,2 % ni tashkil qildi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 105,8 mld. so'm yoki jami qurilish ishlaridagi ulushi 18,8 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 813,0 % ni tashkil qildi.

Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish ishlari hajmi 45,6 mld. so'm yoki jami qurilish ishlarining 8,1 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 128,9 % ni tashkil qildi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, % da)



Davlat mulki



Nodavlat mulk

Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 105,5 mld. so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 18,8 % ni tashkil qildi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 13,2 % punktga ko‘paydi.



Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 456,6 mld. so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 81,2 % ni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 13,2 % punktga kamaydi.


2021- yil yanvar-mart

Sirdaryo viloyatida qurilish ishlari



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashlkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, % da)



- Guliston sh.
- Shirin sh.
- Yangiyer sh.
- Boyovut
- Guliston
- Mirzaobod
- Oqoltin
- Sardoba
- Sayxunobod
- Sirdaryo
- Xovos

Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilgan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Guliston shahriga 29,1 % ga to‘g‘ri keldi. Shu bilan bir qatorda Xovos tumaniga 20,8 %, Sirdaryo tumaniga 7,9 %, Mirzaobod tumaniga 7,8 % va Yangiyer shahrida 7,0 % dan to‘g‘ri keldi.



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo‘limi.

Aloqa telefoni: (67) 225-02-37  
(67) 236-86-27

